

Altibayeva M.B.
Guliston davlat universiteti
“Ekologiya va geografiya” kafedrası
v.b. dotsenti (PhD).
Guliston davlat universiteti
geografiya yo‘nalishi talabalari Xalilova F. Ismoilov I.

MAVZU: QISHLOQ XO‘JALIGINI HUDUDIY TASHKIL ETISHDA KLASSIK GO‘YALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola qishloq xo‘jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etishda klassik g‘oyalardan foydalanish, hamda ushbu g‘oyalarni hozirgi kunda yirik shaharlar atrofida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda klasterli yondoshuvga bog‘lagan holda tashkil etishning afzalliklari ochib berilgan. Klasterlar hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv iqtisodiy jihatdan ustuvor tarmoqlar va loyihalarni aniqlash imkonini beradi. Bugungi kunda xo‘jalik tarmoqlarini bunday tizimli joylashtirish yuqori samara beradi.

Kalit so‘zlar. Intensiv, qishloq xo‘jaligi, klassik yondoshuv, klasterli yondoshuv, tyunen xalqalari, manufaktura, geografik konveyr, kooperatsiya, kombinatlashuv

Алтибаева М.Б.
Гулистанский государственный университет
Кафедра «Экология и география»
и другие доценты (кандидаты наук).
Гулистанский государственный университет
студенты географического факультета Халилова Ф. Исmoilov И.

ЗНАЧЕНИЕ КЛАССИЧЕСКИХ ИДЕЙ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА THE IMPORTANCE OF CLASSICAL IDEAS IN THE TERRITORIAL ORGANIZATION OF AGRICULTURE

Аннотация. В этой статье раскрываются преимущества использования классических идей в территориальной организации сельскохозяйственных отраслей, а также организации этих идей, связанной с кластерным подходом к выращиванию сельскохозяйственной продукции вокруг крупных городов в настоящее время. Кластеры играют большую роль в укреплении экономической независимости территорий. Такой подход позволяет выявить экономически приоритетные отрасли и проекты. Сегодня такое систематическое размещение хозяйственных продуктов дает высокий эффект.

Ключевые слова. Интенсивное сельское хозяйство, классический подход, кластерный подход, кольца Тюнена, производство, географический конвейер, сотрудничество, комбинаторика

THE IMPORTANCE OF CLASSICAL IDEAS IN THE TERRITORIAL ORGANIZATION OF AGRICULTURE

Altibayeva M.B.
Gulistan State University
Department of “Ecology and Geography”
and other associate professor (PhD).
Gulistan State University

Annotation. This article reveals the advantages of using classical ideas in the territorial organization of agricultural sectors, as well as organizing these ideas in the present day, connecting them to a cluster approach in the production of agricultural products around large cities. Clusters play a large role in strengthening the economic independence of territories. This approach makes it possible to identify economically priority industries and projects. Today, such a systematic placement of farm tobacco has a high effect.

Keywords. Intensive, agriculture, classical approach, cluster approach, Thunen rings, manufacturing, geographical conveyor, cooperation, combinatorics


Kirish: Iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng qadimiysi qishloq xo‘jaligidir. Uning evolyutsion rivojlanishi hududiy tashkil qilish shakllarining murakkablashib borishi va takomillashuvi bilan birga sodir bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik tarmoqlari-dehqonchilik va chorvachilikning aynan shu olim iqtisodiyot nazariyasida birinchi bo‘lib ishlab chiqarishning hududiy jihatiga e‘tibor qaratdi, hududiy iqtisodiyot ta‘limotiga qo‘l urdi, iqtisodiy makon tushunchasini fanga kiritdi. U Iqtisodiyotni hududiy tashkil etish masalalariga majmual, tizimli yondoshuv, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari joylashuvining qonuniyatlarini ochib berdi.

I. Tyunen o‘zining ilmiy g‘oyasini alohida, boshqa mamlakatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan, ajralib turgan hudud, o‘zining mulki misolida yaratdi. Uning faraz qilishicha, bu mamlakatda atigi bitta shahar mavjud bo‘lib, u qishloq xo‘jalik mahsulotlarini iste‘mol qiluvchi yagona bozor yoki markaz vazifasini o‘taydi. Mazkur shahar atrofida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish asosan transport xarajati, mahsulot vazni, uning sifatini buzilmasligi va keltirish masofasi belgilaydi. Aynan ana shu transport omili, uning iqtisodiy jihatlari qishloq xo‘jalik tarmoqlarini shahardan uzoq yoki yaqin masofada joylashuv tizimini shakllantirdi. Mahsulot yetishtirish va uni markazga keltirish ancha arzon bo‘ladi, u shuncha yaqin masofada bo‘ladi, aks holda uzoqroqda joylashadi. Bunda mahsulotning iste‘mol, talab “zichligi” ham katta ahamiyatga ega. Har doim va barcha uchun kerak bo‘lgan mahsulotlar shaharga yaqin joylashtiriladi.

Yuqoridagi tartibda qishloq xo‘jaligini joylashtirish shahar atrofida o‘ziga xos aylanalarni hosil qiladiki, ular ilmiy adabiyotlarda “Tyunen xalqalari” nomi bilan mashxur. Bu xalqaning eng birinchisi yuqori darajada unumdor shahar atrofi xo‘jaligidan iborat bo‘lib, undan keyingi xalqa o‘rmon xo‘jaligi, uchinchi-meva va urug‘chilikdan tashkil topadi. Jami Tyunen tomonidan 6 xalqa belgilagan bo‘lib, ular turli yo‘nalishdagi chorvachilikni ham o‘z ichiga oladi.

Albatta, I.Tyunen g‘oyasi ma‘lum darajada abstraktdir; chunki hech qanday davlat, ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi globallashuv va baynalminallashuv jarayonida jahon xo‘jaligi tizimidan ajralgan holda, alohida rivojlana olmaydi. Qolaversa, bu mamlakatda odatda, bir emas, bir necha shahar mavjud bo‘ladi va

o‘rnatilgan joyning tabiiy sharoiti aynan bir xil emas. Biroq, shunga qaramasdan, muallifning ushbu ta’limoti o‘zining nazariy ahamiyatini, xususan bozor iqtisodiyoti sharoitida saqlab qolgan. Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi hozirgi kunda ham ma’lum darajada xalqasimon tashkil etiladi: eng yaqin joyda sabzavot, karam, kartoshka, undan uzoqroqda sut chorvachiligi, donchilik, parrandachilik, bog‘dorchilik va uzumchilik, go‘sht-jun chorvachiligi ma’lum tartibda joylashadi. Bunday hududiy agrotizimning vujudga kelishida transport, bozor omili, mahsulotning arzonligi va xaridorgirligi, sifatining buzilmasligi katta ahamiyatga ega.



1. Shahar; 2. Sabzavot va meva yetishtirish; 3. O‘rmon xo‘jaligi; 4. Sut chorvachiligi;
5. Donli ekinlar; 6. Ekstensiv qoramolchilik; 7. Foydalanilmaydigan erlar.

1-rasm. Tyunenning qishloq xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirish sxemasi.

Manba: Бурдина Е.А., Крылов П.М. Экономическая география //Учебное пособие. – М.: МГИУ, 2010, с. 26.

Asosiy qism: Shu bilan birga, keyingi yaqin yillarda transport infratuzilmasining takomillashuvi, iste’molning xususiylashuvi (individullashuvi), “yashil inqilob”, qishloq xo‘jaligining mexanizatsiyalashuvi, sanoatning qishloq joylarga kirib borishi kabi yangiliklar, agrobiznes, ya’ni qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlikni qayta ishlash sanoati bilan uyg‘unlashtirish, birlashtirish bu sohaning hududiy tashkil etishga ancha o‘zgartirishlar kiritdi. Bundan tashqari, yuqorida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining faqat bir funksiyasiga, ya’ni uning aholini oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish tomoniga ko‘proq e’tibor qaratildi,

xolos. Agar shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, rus olimi K. I. Ivanovning "geografik konveyr" g'oyasi ham ma'lum ahamiyat kasb etadi. Ushbu g'oyaning asosiy mazmuni, avval ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va ularni iste'molchiga yetkazishni hududlarda bosqichma-bosqich tashkil etishdan iborat. Qishloq xo'jaligining ikkinchi muhim funksiyasi qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashdir. Bu sanoat tarmog'ining tarixan vujudga kelishi aholi sonining ko'payib borishi va uning ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak) faqat tabiiy mahsulotlar bilan ta'minlashga bog'liq. O'z navbatida, hozirgi kunda qayta ishlash sanoati mahsulotlarini ko'p va sifatli ishlab chiqarish talab etiladi. Qishloq xo'jaligi bilan aloqador mazkur sanoat tarmoqlari dastlabki vaqtlarda iste'molchiga yaqin, ya'ni shaharlarda joylashtirilgan. Hatto yaqin yillargacha Toshkentda paxta tozalash, konserva zavodlari, go'sht kombinatlari mavjud edi. Keyingi yillarda bunday sanoat korxonalari asta-sekin o'rta va mayda shaharlarga, qishloq joylarga, bevosita xom ashyo rayonlariga ko'chmoqda. Bunga transport tizimining rivojlanishi, ekologik muammolar, qishloq mehnat resurslaridan foydalanish ham sababchidir. Natijada, qishloq landshafti, uning iqtisodiy makoni faqat an'anaviy soha-qishloq xo'jaligi bilangina emas, balki qisman "shahar xo'jaligi" bilan ham to'ldirilmoqda, o'ziga xos hududiy ishlab chiqarish tizimlari yoki hududiy agrosanoat majmualari shakllanmoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun quyidagilar xos:

- Agrar soha bevosita tabiiy sharoit bilan bog'liqligi tufayli u mavsumiy xarakterga ega;
- Mavsumiyligi uchun mehnat resurslari ham yil davomida band emas;
- qishloq xo'jaligi rivojlanishi sanoatga nisbatan o'zgaruvchan ko'rinishda boradi;
- bu tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari o'ziga xos-mujassamlashuv va ixtisoslashuv torroq, kooperatsiya va kombinatlashuv esa juda kam hollarda uchraydi;
- qishloq xo'jaligi tarmoqlari areal yoki maydon shaklida hududiy tashkil qiladi;
- mazkur tarmoqda ekstensiv va intensiv rivojlanish yaqqol ko'rinadi;
- qishloq xo'jaligining tarmoqlar tarkibi sanoatga o'xshash uncha boy emas;
- qishloq xo'jaligida mulkchilikni xususiylashtirish osonroq;
- xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, chet el investorlarini qishloq xo'jaligiga jalb qilish kamroq va hakazolar:

Yuqoridagi xususiyatlar ushbu tarmoqning iqtisodiyoti va geografiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, tabiiy sharoitning iqlim va ob-havoning noqulayligi qishloq xo'jaligi unumdorligi, u esa qayta ishlovchi sanoatga va pirovard natijada xalqning turmush darajasini pasayishiga olib keladi. Qolaversa, qishloq xo'jaligi bilan sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo, qurilish sanoati va elektr-energetika ham aloqador. Mehnat resurslaridan foydalanishning mavsumiyligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasini yuqori emasligi mazkur tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida yer ishlab chiqarish vositasi bo'lib, uning tabiiy xosildorligi hamma joyda ham bir xil emas.

So'nggi yillarda ba'zi bir mahsulotlarning yetishtirilishida mavsumiy xususiyatini yo'qotib bormoqda. Masalan, Toshkent bozorlarida bunday mahsulotlar deyarli yil bo'yi mavjud. Albatta, bu o'rinda "geografik konveyr"-ning roli ham bor. Chunki, yuqoridagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib turish turli hududlarda, ularning agroiklimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda navbatma-navbat amalga oshiriladi. Yana shuni qayd etish joizki, ayrim qishloq xo'jaligi mevalarining geografiyasi tobora kengayib bormoqda. Chunonchi, anjir, anor va ayniqsa xurmo faqat alohida, subtropik rayonlarning mevasi bo'libgina qolmay, ular endigi sharoitda ko'pgina hududlarda yetishtirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy komponentlar ichida eng avvalo iqlim, suv va tuproqning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi. Shuningdek qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish bilan tizimli ravishda bog'lash, ya'ni klasterli yondoshishni talab qiladi.

Masalan, paxta-to'qimachilik klasterining texnologik zanjiri paxta xomashyosini ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, paxta tolasidan kalava ip ishlab chiqarish, gazlama ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga, fermerlarni (paxta xomashyosini yetishtiruvchilarni), paxta tozalash zavodini, paxtani qayta ishlash korxonasini, to'qimachilik fabrikasini va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonani birlashtirishning maqsadi har bir ishlab chiqaruvchining xarajatlarini kamaytiradigan va yakuniy mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradigan yagona tuzilma yaratishdir.

Xulosa: Klaster uslubini qo'llash, ayniqsa bir-biri bilan bog'liq bo'lgan korxonalar mavjud hududlar uchun katta ahamiyatga ega. Klasterlar hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda katta ro'l o'ynaydi. Ushbu yondashuv iqtisodiy jihatdan ustuvor tarmoqlar va loyihalarni aniqlash imkonini beradi.

Hududlar iqtisodiyotining rivojlanishida klasterli yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri - iqtisodiy omillarning ro'lini kuchaytirish va ma'muriy omillarning rolini kamaytirishdan iborat. Hududiy ma'muriyatlarning roli faqat dastlabki bosqichda yuqoridir. Masalan, yangi klasterlarni tashkillashtirishda, aynan shu hudud manfaatlarni xisobga olgan holda, istiqbolli klasterlarni tanlashda hudud ma'muriyatining roli yuqori bo'ladi. Keyinchalik esa, hududiy ma'muriyatlarning roli kamayib boradi va bozor iqtisodiyoti qonunlari va omillari oldinga planga chiqadi. Hudud hokimiyatlarining roli eng muhim va istiqbolli klasterlarni qo'llab-quvvatlash va "o'yin qoidalari" ni tartibga solishdan iborat bo'ladi. Shu tartibda klasterlar mustahkam qishloq xo'jaligi va sanoat integratsiyasini tashkil qiladi.

Adabiyotlar

1. Altibayeva M.B., Madrahimova Z.N., Umrzaqov O.A. "Iqtisodiy geografiyada tarmoq va hududiy yondoshuvga oid tadqiqotlar" Monografiya GulDU Ilmiy kengash 10-sonli 29.05.2023.
2. Zokirov Sh.S. Kichik hududlar tabiiy geografiyasi. – T.: Universitet, 1999. – 120 b.
3. Qurbonov Sh. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. – T.: Mumtoz so'z, 2013. - 158 b.
4. Qurbonov Sh. Qishloq tumanlarining iqtisodiy salohiyati va ularning ixtisoslashuvi // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 36 - jild. – T., 2010. - B.112-116